

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

DORIVOR TOPINAMBUR O'SIMLIGINI YETISHTIRISH VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA EKSTRAKT AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASI.

*Mamatqulova Karomat Sultonboy qizi
Sobirova Muqaddas Botirovna*

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universitetining Jizzax filiali

Annotatsiya: Topinambur o'simligini yetishtirish va o'simlikning o'ziga xosligi hamda o'simlik xom-ashyolaridan samarali foydalanish yo'llari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: topinambur, tugunak, quddus artishogi, yovvoyi kungaboqar, yernok, protein.

Dorivor topinambur o'simligini o'ziga xos xususiyatlari. O'simliklar tarkibidagi biologik faol moddalarini kimyoviy jixatdan tahlil qilish, ularning tuzilishi va xossalarni o'rghanish bir tomondan kimyo fanini rivojlantirib, unda yangi yo`nalishlarning paydo bo`lishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan zamонавиу samarali dorivor moddalar asosida tovarlarning yaratilishi va tibbiyatda qo'llanilishiga sabab bo`ladi[1]. Hozirgi paytda tibbiyatda ishlatiladigan dorivor moddalarning 1/3 qismi o'simlik moddalari asosida yaratilgan. O'simliklardan olingen dorivor preparatlar sintetik moddalarga nisbatan bir qator afzalliklarga ega. Keyingi paytlarda ularga bo`lgan talab oshib bormoqda. O'simliklar tarkibida uchrovchi alkaloidlar, flavonoidlar, kumarinlar, lignanlar, steroidlar, uglevodlar, polisaxaridlar, antosianlar, vitaminlar va turli mikroelementlar dorivor moddalar yaratish uchun asos bo`lib xizmat qiladi. Helianthus tuberosus (topinambur) o'simligi tarkibida biologik faol moddalarga boy bo`lishi bilan aloxida o'r'in tutadi. Helianthus tuberosus (topinambur) — ko`rinishi tuganakli o'simlik, kungaboqarlar urug'i, astralilar oilasi (Asteraceae)ga kiradi[3]. Topinamburning vatani Shimoliy Amerika hisoblanib, Shimoliy Amerikani yevropaliklar tomonidan ochilishiga qadar braziliyalik hindular tomonidan topinamburning tuganaklari oziq-ovqat sifatida iste'mol qilingan (o'simlikning nomi ham ana shu hindular qabilasining nomidan kelib chiqan – ,tupinamba'). Topinambur — ko`p yillik o'simlik. Uzunligi 40 sm dan 2 metrgacha bo`ladi. Barglari arra-tishli. Poyasidagi barglari: pastki tuxumsimon, qarama-qarshi; yuqorigi nishtarsimon, ketma-ket joylashgan. Gullari savatsimon to`pgulda joylashgan bo`lib, diametri 2-10 sm tashkil etadi. O'rtasidagi gullari sariq rangda, chekkadagilari esa tilla-sariq rangda. Topinamburning foydali xususiyatlari. Topinambur tarkibidagi inulin organizmdan ko`plab zaharli moddalarning chiqarilib yuborilishini ta`minlaydi. Inulin oshqozon-ichak trakti ishlashini yanada aktivlashitiradi va safro haydash faoliyatini stimullahtiradi. Topinamburni iste'mol qilish organizmni turli xil infeksiya va viruslar, shuningdek hazm qilish organlarini zaharlaydigan moddalarga organizmni yanada barqarorlashadi. U ichaklarda normal mikroflorani paydo qilish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun u dizbakterioz bilan kasallanganlar uchun juda foydalidir. Topinambur shilliq parda uchun foydali bo`lib, ularni qon bilan ta'minlanishini stimullaydi. Uni oshqozon yazvasi, o'n ikki barmoqli ichak, duodenit, kolit, gastrit, enterit, pankreatit, kuyish, ich ketish va ich qotish kabi kasalliklarning davosida foydalidir. [2;7]Topinambur kartoshkalarida oqsillar, polisaxaridlar, aminokislotalar, organik va yog` kislotalar aniqlangan. Vitamin Bl, B2, C miqdori ko`p bo`lib, polivitaminli o'simlik hisoblanadi. Topinambur tarkibida katta miqdorda polikislotalar uchraydi, ularga limon, olma, qahrabo kislotasi, fumar kislotasi kiradi. Topinambur tugunagida 19-30% inulin, 2-3% protein, 1-2,5% oqsil, 0,5-1,0 % yog`, 1-1,5% kletchatka, 15-25% AEM (Azot tutmagan ekstraktiv moddalar) ni tashkil etadi. Yashil massasida esa 26-29% quruq moddalar,

2,5-3,5% protein, 2,5-3% oqsil, 0,32- 0,58% yog`, kletchatka 3,5-5,1%, AEM (Azot tutmagan ekstraktiv moddalar) 96,3-21,6% ni tashkil etadi[3;4].

Yetishtirish texnologiyasi - Topinambur o'simligini yetishtirishda quyidagi amallarga yetarlicha e'tibor qaratish kerak: almashlab ekish sistemasida juda ehtiyyotkorlik bilan almashtirilishi shu bilan birga bu yerda necha yil o'sishi hisobgaolinishi zarur aks holda, topinambur o'zidan keyin ekiladigan o'simliklarga begona o't kabi zarar yetkazishi mumkin. Topinamburni bir yerda 3 - 4 yil davomida yetishtirish yaxshi samara beradi. Bizning Markaziy Osiyoda topinamburdan bo'shagan yerga bedani almashlab ekish yaxshi natija berib kelmoqda. Negaki, beda yil davomida 5-6 marotaba o'riliishi natijasida yer nomidan o'sib chiqqan nihollar yo'qotiladi, yer undan tozalanadi. Topinambur yetishtirish uchun yerga ishlov berish xuddi kartoshka ekinidagiga o'xshash. Yer haydashdan oldin yerga 30-40 tonna gektariga organik o'g'it solinadi. Yernokining 25-50 gr tugunagi ekiladi. Tugunakni kesib ekilsa hosildorligi 25-30% ga kamayib ketadi. Agar tugunak juda yirik (70-80 gr) bo'lsa, uni ekishdan oldin kesib etilsa yaxshi natija beradi. Kesilgan tugunak kuz mavsumida ekilmaydi, faqat bahorda ekilishi lozim. 1 gektariga 50000 -60000 tugunak ekiladi, gektariga 0,6-0,2 tonnagacha urug' sarflanadi. Topinamburning yashil maysasi o'shilmasa, tugunak ko'p hosil beradi.[4;5]

Topinambur o'simligidan ekstraksiya ajratib olish. Topinambur o'simligining yer ustki va ildizmeva qismini ekstraksiya usulida ekstraktiv moddalari ajratib olindi. Ekstraksiya savuq suvda, qaynatilgan suvda, spirtda, xloroformda olib boriladi. Ekstraksiya olishda qaynatilgan 250 ml suvga topinambur o'simligining ildizi tugunagidan 50 mg tozalab olinib yaxshilab mayda kubikcha shakliga keltirib suvga qo'shib aralashtirib olinadi. Ekstraksiyani o'g'zini maxkam berkitib qorong'u va salqin joyda saqlanadi. Ekstrakt ajratib olish uchun bir oy davomida saqlanadi. Ma'lum muddat o'tgandan so'ng ekstrakti filtr qog'ozda filrlanib olinadi.[6;7]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ataboyeva X.N., Xudayqulov J.B., O'simlikshunoslik. Toshkent 2018.
2. Эшпулатов Ш.Я., Тешабоев Н.И., Мамадалиев М.З.У. Евразийский Союз Ученых, 2021 Интродукция, свойства и выращивание лекарственного растения стевия в условиях ферганского долины
3. Xolmatov H.X, Ahmedov O'.A. Farmakognoziya. Toshkent 1995
4. Turdaliev, A. T., Darmonov, D. Y., Teshaboyev, N. I., Saminov, A. A., & Abdurakhmonova, M. A. (2022, July). Influence of irrigation with salty water on the composition of absorbed bases of hydromorphic structure of soil. In IOP Conference Series: Earth and Environmental Science (Vol. 1068, No. 1, p. 012047). IOP Publishing.
5. Saminov A.A.O'simlik, Nasriddinova D.K.Qizi., Zanjabil o'simligini ochiq maydonlarda yetishtirish texnologiyasi //Science and innovation. 2022. T. 1. – №. D3. – C. 26-30.
6. Saminov A.A. O'g'li, Abdug'aniyeva D.O'. Qizi., Nazirova B.H.Qizi. Dollar daraxtining yetishtirish texnologiyasi //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D3. – C. 297-300.
7. Шурутова. Уникальная лекарства в промышленных объёмах. <http://www.polyprenolls.ru/>.